



## CHET TILI TA‘LIMIDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA KOGNITIV BILIMLARNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.095>

*Sattorova Feruza Elmurodovna*

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Katta o‘qituvchi, PhD, doktorant*

*(99)941-14-08*

**Annotatsiya.** Chet tili ta‘limidagi zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblangan kommunikativ-kognitiv yo‘nalishning paydo bo‘lishi, o‘rganilayotgan til yuzasidan nafaqat muvoqot kompetensiyasini oshirish ko‘zda tutilgan, balki o‘rganilayotgan til bo‘yicha turli madaniy, pragmatik, sotsiolingvistik fon bilimlarni shakllantirish orqali turli kontekstlar o‘rinli muloqot olib bora oladigan chet tilida haqiqiy kompetent kadrlar tayyorlash maqsad qilingan. Shunday ekan ushbu maqolada chet tili pedagogikasida kompetensiyalarni shakllantirishda kognitiv bilimlarning ahamiyati borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, malaka, pragmatik qobiliyat, kommunikativ kompetent, CEFR, kognitiv bilimlar, tushunish, eslab qolish

**Abstract.** The emergence of the communicative-cognitive direction, which is considered one of the modern approaches to foreign language education, aims not only to increase communicative competence in the target language, but also to train truly competent personnel in a foreign language who can communicate appropriately in various contexts by forming various cultural, pragmatic, and sociolinguistic background knowledge in the target language. Therefore, this article discusses the importance of cognitive knowledge in the formation of competencies in foreign language pedagogy.

**Keywords:** competence, proficiency, pragmatic ability, communicative competence, CEFR, cognitive knowledge, understanding, remembering

**Аннотация.** Появление коммуникативно-когнитивного направления, которое считается одним из современных подходов к обучению иностранным языкам, направлено не только на повышение коммуникативной компетенции на изучаемом языке, но и на подготовку действительно компетентных специалистов в области иностранного языка, способных адекватно общаться в различных контекстах, формируя разнообразные культурные, прагматические и социолингвистические знания

на изучаемом языке. Поэтому в данной статье рассматривается важность когнитивных знаний в формировании компетенций в преподавании иностранных языков.

**Ключевые слова:** компетентность, уровень владения языком, прагматические способности, коммуникативная компетентность, CEFR, когнитивные знания, понимание, запоминание

**Kirish.** Chet tili ta’limida oxirgi yillarda keng iste’molda bo’lgan kommunikativ kompetent kadr tayyorlash maqsadi, chet tilida haqiqiy kompetentlik nimalarni qamrab olishini aniqlab olishga chorlaydi. Kompetent tushunchasi layoqatli, qobiliyatli ma’nolarida qo’llaniladi, shunday ekan qobiliyat so‘zining pedagogik-psixologik ta’rifiga e’tibor qaratsak: “Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi psixik sifatlar yig‘indisidir... qobiliyatni inson tug‘ma, tabiat in’omi sifatida tayyor holda olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi”<sup>84</sup>. Shu o‘rinda nutq kompetensiyasi, ya’ni qobiliyati xususida to‘xtalib o‘tamiz. “Kompetensiya” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘z kasbiga yaroqli, malakali, loyiq” degan ma’noni bildiradi. Kompetensiya bilim va ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar, olingan nazariy bilimlarning majmuasini amaliyotda mustaqil va ijodiy qo‘llay olishlik layoqati hisoblanadi. Kompetensiya tushunchasi tilshunoslikda ilk bor XX asr o‘rtalarida N.Chomskiy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui”<sup>85</sup> sifatida qayd etib, fanda xilma-xil bahs-munozaralarga sababchi bo‘ldi<sup>86</sup>. Berilgan izohlar ta’lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat deb, ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni esa egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishi deb tushunish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun umumiy tarzda izohlanayotgan mazkur tushunchalarga yanada oydinlik kiritish uchun ayrim xorijiy ilmiy manbalarga murojaat qilamiz. A.A.Verbutskiy hamda D.M. Ilyazovalarning fikricha, kompetensiya – bu inson tomonidan muayyan bir faoliyatning amalga oshirilishini ta’minlovchi, uning maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, shaxsiy sifatlari, bilimlari, malakalari, ko‘nikmalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa amaliyotda namoyon bo‘lgan va amalga oshgan, insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy-avlodiy sifatlari rivoji bilan bog‘liq tavsiflanuvchi kompetensiyadir<sup>87</sup>. Til ta’limiga kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan o‘z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil

<sup>84</sup> Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat: Darslik - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011.- B. 142.

<sup>85</sup> Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. - Cambridge: Mass., MIT Press, 1965. -B.251.

<sup>86</sup> Barman B. The Linguistic Philosophy of Noam Chomsky // Philosophy and Progress: Vols. LI-LII, January-June, July-December, 2012 ISSN 1607-2278 (Print), DOI : <http://dx.doi.org/10.3329/pp.v51i1-2.17681>.

<sup>87</sup> Вербицкий А.А., Ильязова М.Д. Инварианты профессионализма: проблемы формирования. – М.: Логос. 2011. -С.28.

ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya‘ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Bu boradagi amaliy natijalarga erishish, chet tilini o‘rganishda kompetensiya tushunchasining muhimligi Yevropa olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar silsilasida rivojlandi. Bunda bu tushuncha orttirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar yordamida biror bir faoliyatni muvafaqqiyatli amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin qilindi. Shundan so‘ng chet tilini bilish darajasini baholashning CEFR, ya‘ni Yevropa Kengashining “Chet tilini egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash” to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me‘yorlar bo‘yicha chet tilini bosqichma-bosqich A1 dan C1 darajagacha egallashning milliy tizimi yaratildi va chet tili o‘rganuvchilari egallashi muhim bo‘lgan umumiy va kommunikativ qobiliyatning namunalari (models and domains) aniq belgilab qo‘yildi. Kommunikativ metodologiyadan maqsad chet tilini o‘qib o‘rganish jarayonida ijtimoiy va madaniy jihatdan muvofiq, mos tarzda muloqotga kirisha olishni talab qiladigan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. Bunga erishish uchun o‘rganish jarayonida tilning vazifasiga diqqat qaratish, haqiqatga yaqin vaziyatlarni yaratish muhim hisoblanadi. A.S. Belkin esa o‘zining fundamental tadqiqotida “kompetensiya – insonda mavjud bo‘lgan sifatlar to‘plami”, kompetentlik – muayyan shaxs ega bo‘lishi zarur bo‘lgan narsalar to‘plami<sup>88</sup> – degan fikrni ilgari suradi. O‘z-o‘zidan ma‘lum bo‘ladiki, har ikkala atama o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir. A.Xoliqovning ta’kidlashicha, “qobiliyat bilimdan farq qiladi, bilim bu ilmiy mutolaalar natijasi bo‘lsa, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyatdir”<sup>89</sup>. Shuni yodda tutish kerakki, qobiliyat bilimdan farq qilsa ham shunday qobiliyatlar borki ularni rivojlantirish bilim olish mahsuli bilan chambarchas bog‘liq, zero qobiliyatni maxsus bilimlarni o‘zlashtirish orqali mukamallashtirish va rivojlantirib borish mumkin. Haqiqatan ham ta’lim jarayonida bilimlar bosqichma-bosqich avtomatlashtirilib, amaliy kompetensiyaga aylanadi<sup>90</sup>

Bundan 30 yillar avval ikkinchi chet tilini o‘rganishda pragmatikaning til o‘zlashtirishdagi va amaliy tilshunoslikdagi ahamiyati fonologiya, morfologiya va sintaksis sohalari bilan taqqoslaganda kam o‘rganilgan soha sifatida ancha sust rivojlandi. Albatta, o‘sha davrlarda bu soha nazariy jihatdan juda ko‘p yutuqlarga erishgan bo‘lsada, ko‘plab tilshunoslar pragmatikaning nutqiy qobiliyatdagi ahamiyati, uni tekshirish va baholash yo‘llari haqida, umuman olganda, nazariy metodologik asoslariga deyarli e’tibor qaratishmadi. Sh.Safarov ta’kidlaganidek, “lisonning inson tajribasi va faoliyatida tutgan o‘rni bilan qiziqqan soha – pragmatik lingvistik til va uning vositasida bajariladigan muloqot faoliyatining xususiyatlari haqidagi bilimning miqyosan hamda miqdoran kengayishi, boyishi uchun xizmat qilishi turgan gap. Lekin ushbu “xizmat”ni faqatgina ilmiy tafakkur

<sup>88</sup> Белкин А.С. Компетентность. Профессионализм. Мастерство. – Челябинск. – 2004. – С.132.

<sup>89</sup> Холиқов А. А. Педагогик mahorat: Darslik - Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011. -Б. 196.

<sup>90</sup> Bloom B.S. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longman, 1956.

rivoji miqyosida ko‘rmasdan, balki amaliy faoliyat doirasida namoyon bo‘lishi darajasiga ham e‘tibor berish kerak”<sup>91</sup>.

Ravshanki, bu yangi yo‘nalishlar o‘tgan vaqt davomida baquvvat ildizlarini shakllantirib, ko‘plab empirik bilimlar bilan boyigan bo‘lsa-da, ammo fikrimizcha, bu yo‘nalishlarni til o‘qitish pedagogikasi, boshqacha aytganda lingvodidaktikadagi ahamiyatini inkor etmasak-da, ularni qanday qilib til o‘rganuvchilarda shakllantirish va kommunikatsiyani pragmatik bilim bilan hamkorlikda muvaffaqiyatli olib borish yuzasidan yetarli natijalarni qo‘lga kiritganimizcha yo‘q. Chunonchi, amaliyotdan ma‘lumki, muloqot qobiliyati nafaqat lisoniy bilimni, ya‘ni grammatik jihatdan gaplarni to‘g‘ri shakllantirishni, balki pragmatik, sotsiologivistik va strategik qobiliyatlarni shakllantirishni talab qiladi. Ammo ingliz tili o‘qituvchilari ko‘pincha grammatik xatolarni topish, ularni bartaraf etishga asosiy e‘tiborni qaratib, lisoniy qobiliyati kuchli til o‘rganuvchilarni shakllantirishyapti, lekin ular real hayotdagi muloqotda muvaffaqiyatsizlikka duch kelishyapti, chunki ularda kommunikativ qobiliyatni to‘ldiruvchi yuqorida ta‘kidlangan qo‘shimcha qobiliyatlari yetishmaydi.

CEFRda belgilab berilgan kommunikativ kompetensiya o‘z ichiga lingvistik, pragmatik, sotsiolingviz va strategik qobiliyatlarni qamrab olar ekan, muloqotni samarali olib borish to‘rtala guruh qobiliyat haqida bilimlarga ega bo‘lish va ularni amaliy faoliyatda o‘zaro integratsiya qilgan holda qo‘llay olishni talab qiladi. Bunda kompetensiyaning shakllanishi bilish jarayonlari orqali amalga oshadi va u shaxsning intellektual rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir<sup>92</sup>. Bunda inson til o‘rganish jarayonining o‘zi fikrlashini ham rivojlantirish zarur. Til o‘rganish faqat lisoniy bilimlarni shunchaki mexanik yodlash emas, balki o‘rganilgan bilimlarni shaxsiy qiziqishlar va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda ularning amaliy qo‘llanilishiga e‘tibor qaratishni angatadi. Shunday ekan, chet tilini kognitiv o‘rganish kognitiv psixologiya, strukturaviy tilshunoslik va N.Chomskiy nazariyalariga tayanadi<sup>93</sup> va bir nechta afzalliklarga ega: lingvistik birliklarni chuqur o‘rganish, o‘rganilayotgan materialni kognitiv qayta ishlash (tushunish va eslab qolish uchun bir necht a mashqlar bilan ishlash), tilning murakkab tuzilmalariga e‘tibor qaratish, talabalarga chet tilining tuzilishi va foydalanishdagi o‘ziga xosliklarini inobatga olishga o‘rgatish. Bu nazariya doirasida qo‘llanilib kelinayotgan PPP modeli (Presentation, Practice, Product) o‘rganilishi kerak bo‘lgan turli lisoniy, pragmatik, sotsiolingvistik va strategik bilimlar yuzasidan ma‘lumotlar ochiq ifodalanadi, qayta ishlanadi va uni turli kontekstlarda qo‘llab o‘rganishlari uchun sharoit yaratadi.

Xullas, hozirda amalda bo‘lgan CEFR hujjatida asoslangan kommunikativ qobiliyatli shaxsni shakllantirishda turli kognitiv bilimlar o‘quvchilardagi chet tilini o‘zlashtirish bo‘yicha mavjud muammolariga yechim bo‘la oladi. Jumladan, turli bilimlar dastlab

<sup>91</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. - Б.41.

<sup>92</sup> Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. London: Routledge, 2001.

<sup>93</sup> Chomsky, N. *Reflections on language*. London: Temple Smith, 1989. (P17)

o‘qituvch yordamida turli namunalar, modellar va savol-javob orqali shakllantirilib talabalardi turli ko‘nikma va qobiliyatning amaliy qo‘llay olishlariga tayanch vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat: Darslik - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011.- Б. 142.
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. - Cambridge: Mass., MIT Press, 1965. -Б.251.
3. Barman B. The Linguistic Philosophy of Noam Chomsky // Philosophy and Progress: Vols. LI-LII, January-June, July-December, 2012 ISSN 1607-2278 (Print), DOI : <http://dx.doi.org/10.3329/pp.v51i1-2.17681>.
4. Вербицкий А.А., Ильязова М.Д. Инварианты профессионализма: проблемы формирования. – М.: Логос. 2011. -С.28.
5. Белкин А.С. Компетентность. Профессионализм. Мастерство. – Челябинск. – 2004. – С.132.
6. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat: Darslik - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011. -Б. 196.
7. **Bloom B.S.** *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longman, 1956.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. - Б.41.
9. **Piaget J.** *The Psychology of Intelligence*. London: Routledge, 2001.
10. Chomsky, N. Reflections on language. London: Temple Smith, 1989.(P17)